

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020.PeD/S.127.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MURATOVA NOZIMA XABIBULLAEVNA

**NOTO‘LIQ OILALARDA VOYAGA YETMAGAN FARZANDLARNI
IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.09-Ijtimoiy pedagogika

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Muratova Nozima Xabibullaevna

Noto‘liq oilalarda voyaga yetmagan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish.....3

Муратова Нозима Хабибуллаевна

Совершенствование подготовки несовершеннолетних детей из неполных семей к социальной жизни.....

Muratova Nozima Xabibullaevna

Improvement of mechanisms of preparing minor children for social life in dysfunctional families.....

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....23

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MURATOVA NOZIMA XABIBULLAEVNA

**NOTO‘LIQ OILALARDA VOYAGA YETMAGAN FARZANDLARNI
IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.09-Ijtimoiy pedagogika

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2025.2.PhD/Ped3298 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (mvaoiti.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Musurmanova Aynisa Musurmanovna,
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

.....
pedagogika fanlari doktori, professor

.....
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

.....

Dissertatsiya himoyasi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD21/30.10.2020.Ped/S127.01. raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “ ____ “ _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri. Chilanzor ko‘chasi 25-uy Tel: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com

Dissertatsiya bilan Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ -raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilanzor tumani, Chilanzor ko‘chasi, 25-uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; email: mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «.....» kuni tarqatildi.
(2025 yil «.....»dagi -raqamli reestr bayonnomasi)

N.M. Egamberdiyeva,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

B.B. Mavlonov,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD).

Sh.M. Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda xalqaro tashkilotlar, xususan, YuNISEF tomonidan barcha bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, bolalarning ta'lim-tarbiyasida gender tengligini ta'minlash, bolalarning hayotda o'z o'rnini topishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilish, innovatsion yondashuvlar asosida voyaga yetmagan farzandlarni mustaqil hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bugungi kunda noto'liq oilalarning o'sib borishi, noto'liq oilada bola shaxsining shakllanishi dolzarb muammoga aylanmoqda. Pew Research Center markazi tadqiqot ko'rsatkichlariga ko'ra, noto'liq oila sonining eng ko'p miqdori AQShda bo'lib, 23 % ni tashkil etmoqda. Fransiya va Rossiyada 18 %, Buyuk Britaniyada 21 % noto'liq oilalar mavjud. Xitoy va Vyetnamda esa noto'liq oilalarning soni 3-4 % ga teng.

Dunyodagi so'nggi o'n yilliklardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi bolalarni ijtimoiylashtirishning eng muhim institutlaridan biri – oilaning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Jamiyatni bunday tubdan qayta qurish sharoitida oila o'zining konservativ tabiati tufayli bolalarni ijtimoiylashtirish sohasida strategiyani tanlashda alohida qiyinchiliklarga duch keladi. Oilaning ta'lim subyekti sifatidagi mavqeyining zaiflashishi, oila kabi voyaga yetmaganlarni tarbiyalash uchun mas'ul bo'lgan ta'lim muassasalari faoliyatida juda aniq qayd etilgan.

Respublikamizda oilani qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirishga global darajada ahamiyat qaratilib, xususan, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi¹da oilani rivojlantirish masalalari bo'yicha davlat, fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini yo'lga qo'yish, oila ajralishlari bilan bog'liq salbiy tendensiyalar va muammolar sabablarini bartaraf etish, zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalar farovonligi darajasini oshirish, oilaning ta'lim-tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlash, oilalarga metodik, amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, oila institutining zaiflashishi, ajralish va uning asorati sifatida noto'liq oilalar sonining ko'payishi, voyaga yetmagan yoshlar va ayollarda og'ir jinoyatchilik, yoshlar va ayollar orasida yakunlangan (o'lim bilan tugagan) suitsid sonining keskin o'sishi, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq ijtimoiy-pedagogik, psixologik muammolar ortib borayotganligi, noto'liq oilalarning katta qismi o'z vazifalarini, ayniqsa tarbiyaviy funksiyasini talab darajasida bajara olmayotganligi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi **Qonuni**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5325-son, 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.

ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5938-son, 2023 yil 21 dekabrda "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son **Farmonlari**; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 3808-son, 2023-yil 21-dekabrda "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-401-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-son **Qarorlarida** belgilangan ustuvor vazifalar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamalakatimizda noto'liq oila va undagi bola tarbiyasi ijtimoiy muammo sifatida A. Munavvarov, O. Musurmanova, B.Shoumarov, Yu. Shaamirova, G. Yunusova, G.Yadgarova, Z.Shoumarova kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

MDH olimlaridan A.I.Antonov, B.JI.Benin A.B.Mudrik, Ya.G.Nikolaeva, E.V.Sokolov, O.A.Votnova, Ye.Grigoreva, T.A.Gurko, I.F.Dementeva, S.A.Ivanova, I.S.Klesina, A.B.Sinelnikov kabilar oilalarda farzand tarbiyasini amalga oshirishning ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganishgan.

Xorij olimlaridan M.Terblanche, C.Prince, H.Ricciuti, M.Marion, D.Monama, W.Jiumpanyarach, J.Cherry va boshqalar tomonidan noto'liq oiladagi ayolning-onalikning hamda bolalarning ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik muammolari o'rganilgan.

Tahlillarga ko'ra, voyaga yetmagan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalari bo'yicha ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, noto'liq oilalarda voyaga yetmagan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari bugungi zamon talablariga mos darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-2014-0902125611–"Noto'liq oilalarda

voyaga yetmagan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: noto‘liq oilalarda voyaga yetmagan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: noto‘liq oilalarda voyaga yetmagan farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

noto‘liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish modelini takomillashtirish;

noto‘liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning integrativ-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish;

noto‘liq oilalar farzandlarining ijtimoiy hayotga tayyorligini baholash mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida noto‘liq oilalarda voyaga yetmagan farzandlarni ijtimoiylashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Farg‘ona, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridagi 307 nafar respondentlar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti Pedagogik qo‘llab-quvvatlash noto‘liq oilalar farzandlarining ijtimoiylashuvini rag‘batlantirishning keng qamrovli vositasi sifatida noto‘liq oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlari va ularning samaradorligi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish hamda belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash uchun pedagogik-psixologik, ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik manbalarni o‘rganish, qiyosiy tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, sotsiometrik (so‘rovnoma, test, suhbat, anketa), olingan natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

noto‘liq oila farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlash mazmuni ota-ona-bola ijtimoiy munosabatlari, ta‘lim motivatsiyasi, kommunikativ madaniyat, o‘zlikni anglashga qaratilgan tarbiyaviy qo‘llab-quvvatlashning hamkorlikka yo‘naltirilgan maqsadlariga ko‘ra adaptiv ko‘nikmalar identivligini ta‘minlashga bog‘liq oilaviy qadriyatlarga doir tasavvurlarning shakllanganlik darajasi asosida aniqlangan;

noto‘liq oila farzandlarini ijtimoiylashtirishning pedagogik modeli bolalar tomonidan subyekt-subyekt munosabatlardagi ijtimoiy rollarni ideallashtirishga ko‘ra idrok etishining kommunikativ hamda kognitiv xususiyatlarga ta‘siri tufayli ta‘lim hamda oila hamkorligining mazmunli va uslubiy komponentini “ota” va “ona” obrazi haqidagi tasavvurlarning identivligi orqali ijtimoiy refleksiyaga bog‘liq moslashuvchanligi asosida takomillashtirilgan

noto‘liq oila farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning integrativ-pedagogik mexanizmlari shaxs ijtimoiylashuvining tipologik jihatlarini sotsial “Men” obrazida namoyon bo‘lishiga ko‘ra individual xususiyatlar hisobga olingan oilabay diagnostikadagi ijtimoiy-pedagogik va kommunikativ sifatlarni qadriyatli munosabatlarga muvofiq ijobiy impulsda qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

ta'lim jarayonida noto'liq oila farzandlariga pedagogik yordam ko'rsatish shartlari "o'zaro ta'sir – ko'mak" taktik keyslarni o'quvchi ijtimoiylashuvining introspeksiya bog'liq holda qo'llash orqali ijtimoiy hayotga tayyorlikning konstruktiv "Men" obrazida identiv namoyon bo'lish jihatlarini belgilashga ko'ra aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"yordam - o'zaro ta'sir – ko'mak" taktikasi o'zgartirildi, bu o'qituvchiga noto'liq oilalar farzandlarini ijtimoiylashtirish va ularning ota-onalariga maslahat berish uchun pedagogik yordamni amalga oshirishga imkon beradi;

noto'liq oilalar farzandlarining ijtimoiylashuviga yordam beradigan "Oilaparvar odamni tarbiyalash" kompleks dasturi ishlab chiqilgan;

o'qituvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularga noto'liq oilalar farzandlarini ta'lim jarayonida ijtimoiylashtirish uchun pedagogik yordamni amalga oshirishga imkon beradi;

ijtimoiylashtirishning mezon ko'rsatkichlari guruhi tashkil etildi, ularning mavjudligi noto'liq oilalar farzandlarida ularga shaxsiy pedagogik yordam ko'rsatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, O'zbekiston Respublikasi OAK ro'yxatidagi ilmiy-jurnallar hamda xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati noto'liq oilalar farzandlarining ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi tarbiya xususiyatlari aniqlanadi va noto'liq oilalarning defitsit xususiyatlari va farzandlarning ijtimoiylashuvidagi qiyinchiliklar o'rtasidagi tabiiy aloqalar o'rnatilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta'lim jarayonini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning nazariy konsepsiyasiga-noto'liq oilalardan farzandlarning ijtimoiylashuvini rag'batlantirishning keng qamrovli vositasi sifatida pedagogik qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Noto'liq oilalarda voyaga yetmagan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan tadqiqot natijalar asosida:

noto'liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari oilalarning kompleks vazifalari integratsiyasiga yo'naltirilgan tabiiylik, ochiqlik tamoyillarini oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayoniga ommabop kontekstlarda singdirish asosida aniqlashtirishga

doir takliflar **“Noto‘liq oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlari” o‘quv qo‘llanmasi** mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining 2025 yil 23 apreldagi 02-02/579-son ma‘lumotnomasi), (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi Toshkent shahar Yunusobod tumani Oila va xotin qizlar bo‘limining 2025 yil 23 apreldagi 07/11-31-son ma‘lumotnomasi). Natijada, noto‘liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini yaratish mexanizmlari ishlab chiqilgan;

noto‘liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish modeli ta‘lim va oila hamkorligini kuchaytiruvchi mazmunli va uslubiy komponentni ijtimoiy institutlarga pedagogik ta‘sir moslashuvchanligini barqarorlashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar **“Noto‘liq oilada voyaga yetayotgan farzandni oilaparvar inson qilib tarbiyalash” o‘quv dasturidagi** vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining 2025 yil 23 apreldagi 02-02/579-son ma‘lumotnomasi), (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi Toshkent shahar Yunusobod tumani Oila va xotin qizlar bo‘limining 2025 yil 23 apreldagi 07/11-31-son ma‘lumotnomasi). Natijada, noto‘liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish modelining komponentlari takomillashtirilgan;

noto‘liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning integrativ-pedagogik mexanizmlari bola, ota-ona va yaqinlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan oilabay diagnostika instrumentlarini qadriyatli munosabatlar ustuvorligi ta‘minlangan muhitda ijobiy impulsda qo‘llash asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar **“Mahallalarda to‘liqsiz oilalardagi muammosi mavjud farzandlar bilan ishlash mexanizmlari” mavzusiga oid ilmiy loyihadagi** vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining 2025 yil 23 apreldagi 02-02/579-son ma‘lumotnomasi), (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi Toshkent shahar Yunusobod tumani Oila va xotin qizlar bo‘limining 2025 yil 23 apreldagi 07/11-31-son ma‘lumotnomasi). Natijada, noto‘liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning integrativ-pedagogik mexanizmlari takomillashtirilgan;

noto‘liq oilalar farzandlarining ijtimoiy hayotga tayyorligini baholash mezonlari o‘zini o‘zi tasvirlash va namoyon qilish ko‘nikmalarini intensiv rivojlantirishga mo‘ljallangan **“o‘zaro ta‘sir-ko‘mak”** taktik keyslarni bola shaxsi ijtimoiylashuvi jarayonida individuallikda qo‘llash asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar **“Yosh oilalarda ajralish tendensiyasi, omillari va kelib chiqish sabablari” mavzusiga oid ilmiy loyihadagi** vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining 2025 yil 23 apreldagi 02-02/579-son ma‘lumotnomasi), (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi Toshkent shahar Yunusobod tumani Oila va xotin qizlar bo‘limining 2025 yil 23 apreldagi 07/11-31-son ma‘lumotnomasi). Natijada, noto‘liq oilalar farzandlarining ijtimoiy hayotga tayyorligini baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy-uslubiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarining chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika, 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar qismidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Noto'liq oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida noto'liq oila tushunchasi mazmuni va mohiyati, noto'liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlash xususiyatlari hamda noto'liq oilalar farzandlarni pedagogik qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy – huquqiy asoslari yoritilgan.

Noto'liq oila tushunchasi mazmunining umumiy xarakteristikasi – bu oila guruhida farzand (bolalar) va ota-onalardan biri (onasi yoki otasi) mavjudligi hisoblanadi. Bola shaxsiyatining shakllanishi uning oiladagi hayotining obyektiv sharoitlari (oilaviy munosabatlar, oila tuzilishi va hajmi) bevosita ta'siri ostida sodir bo'ladi va kattalar tomonidan maqsadli tarbiya ta'siri ostida bo'ladi. Mazkur bobda aynan “Noto'liq oila” tushunchasining mohiyati, noto'liq oilada ijtimoiylashuv, noto'liq oila tushunchasi mazmunini aniqlashdagi yondashuvlar hamda noto'liq oilalarning turlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, mazkur bobda noto'liq oilalarda voyaga yetmagan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalari bo'yicha olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilgan holda noto'liq oilalar nazariy jihatdan quyidagi turlarga ajratilgan: 1). qulay, ammo tizimli ravishda tartibsiz; 2). ijobiy beqaror: bola tarbiyasiga umuman ijobiy ta'sir ko'rsatadi; 3). shaxsni to'g'ri shakllantirish uchun zaif yoki yetarli emas; 4). neytral: oila ichidagi munosabatlarda nisbatan erkin tarbiya ustunlik qiladi; 5). noqulay: bu axloqsiz mikroiklim va bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan; 6). kriminogen: bu yerda oila ichidagi munosabatlar shunday qurilganki, ular faqat bolaning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga zarar yetkazadigan oilalar. Shu

bilan birgalikda noto'liq oilaning o'ziga xos hayotiy faoliyati natijasida yuzaga keladigan noqulay omillar aniqlangan.

Bizga ma'lumki, farzandning oilaviy ijtimoiylashuvining muvaffaqiyati oilaning quyidagi funksiyalarni bajarish sifati bilan bog'liq: 1) bolaning jismoniy va hissiy rivojlanishini ta'minlash; 2) bolaning jinsiy identifikatsiyasini shakllantirish; 3) bolaning aqliy rivojlanishi; 4) ijtimoiy normalar; 5) qiymat yo'nalishlarini shakllantirish; 6) ijtimoiy rivojlanish. Noto'liq oilada tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari farzandlarda mas'uliyat, mustaqillik, tashabbuskorlik, xushmuomalalik, maqsadlilik, salbiy ta'sirlarga qarshi turish qobiliyati kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga ta'sir qiladi. Mazkur bobning ikkinchi paragrafida noto'liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan bo'lib, bunda: 1. Bolaning jismoniy va hissiy rivojlanishini ta'minlash; 2. Bolaning jinsiy identifikatsiyasini shakllantirish; 3. Bolaning aqliy rivojlanishini ta'minlash; 4. Farzand tomonidan ijtimoiy normalarni o'zlashtirish; 5. Farzandning asosiy qadriyat yo'nalishlari; 6. Bolaning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash masalalarining dolzarbligi asoslab berilgan.

Noto'liq oilalarda ijtimoiylashuv nostandart sharoitlarda sodir bo'lishini hisobga olib, o'qituvchilar ushbu oilalar farzandlari va yolg'iz ota-onalar bilan ishlash zarurati va o'ziga xosligini tan olishadi. Shu sababli, ushbu bobda ijtimoiylashuv muammolarini hal qilishda o'qituvchining ishtiroki va o'rni hamda ijtimoiylashuv buzilishlarining oldini olish va bartaraf etish uchun farzandni pedagogik qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari aniqlangan. Maktablarning noto'liq oilaga nisbatan amalga oshiradigan harakatlariga nisbatan yordam turlari ishlab chiqilgan.

Yosh avlodning ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu bobda noto'liq oilalar farzandlarni pedagogik qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy – huquqiy asoslari hamda ularda belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, noto'liq oilalar farzandlarining ijtimoiy moslashuvi va mazkur moslashuvdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida farzandlarga pedagogik qo'llab-quvvatlashning asosiy vazifalarini amalga oshirish yo'llari hamda moslashuv jarayonida farzandlarga yordam berishda hisobga olinishi kerak bo'lgan kasbiy pedagogik faoliyatning tamoyillari aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Noto'liq oilalar farzandlarini ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash metodologiyasining samaradorligi va modeli”** deb nomlangan ikkinchi bobida noto'liq oilada voyaga yetayotgan farzandlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish texnologiyalari, noto'liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlash modeli ishlab chiqilgan hamda ijtimoiylashuv muhitini o'rganish, noto'liq oilalarning farzandlarini tarbiyalash va ijtimoiylashtirish samaradorligi aniqlangan.


Noto'liq oilaning ijtimoiylashuv instituti sifatida ishlashi to'liq oiladan sezilarli darajada farq qiladi. Bundan kelib chiqadiki, o'qituvchilar tarkibining noto'liq oiladan farzandga ijtimoiylashuv qiyinchiliklarini yengishga yordam berishga qaratilgan

faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Ushbu bobda noto'liq oilalardagi farzandlarni pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimida sinf rahbarining o'rni va uning bu borada amalga oshiradigan vazifalariga aniqlik kiritilgan. Shuningdek, noto'liq oilalardagi farzandlarni pedagogik qo'llab-quvvatlashning pedagogik faoliyat turi sifatidagi protsessual tarkibiy qismlari ajratilgan hamda noto'liq oilalardagi farzandlarni pedagogik qo'llab-quvvatlashning tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan.

Noto'liq oilalardagi farzandlarni pedagogik qo'llab-quvvatlash metodologiyasini ishlab chiqishda biz uni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi tarkibiy qismlarga nisbatan kuzatamiz: maqsad, vazifalar, faoliyatning mazmuni va kutilayotgan natijasi. Faoliyat usullari, vositalari va shakllarini tanlash tartibga solinmaydi, chunki, u o'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlovchi subyektlarning individual xususiyatlaridan va pedagogik vaziyatning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.


Noto'liq oilalar farzandlarini pedagogik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiylashtirish muammolarini hal qilishga yordam beradigan pedagogik faoliyat tarkibi pedagogik muammolar (kattalar (ota-onalar, o'qituvchilar) bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatishdagi qiyinchiliklar, shaxsiy muvaffaqiyat uchun maktab ta'limining ahamiyatini kam baholash, farzandning tibbiy xabardorligining yetishmasligi, farzandning kommunikativ nochorligi farzandning bo'sh vaqt madaniyati pastligi) misolida ko'rib chiqilgan hamda ularning yechimi yo'llari ishlab chiqilgan. Shuningdek, noto'liq oilada farzandning qilmishlarini nолоyiq oqlash istagi, kattalarning tarbiyaviy mavqeining yo'qligi hamda bunday xatti-harakatlar o'z ta'lim va hayotiy pozitsiyasini oqlash uchun muhimligi, ammo, bu farzandning shaxsiyatiga zarar yetkazishi aniqlangan.

Noto'liq oilada tarbiya jarayonining kamchiliklari ota-onalar o'rtasida ma'lum umumiy pedagogik, tashkilotchilik qobiliyatlari va pedagogik texnika ko'nikmalarining shakllanmaganligi tufayli yuzaga keladi. Shu sababli tadqiqot ishida ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun o'qituvchilar bolalarni yolg'iz tarbiyalayotgan ota-onalarga ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirishda yordam berishlari kerakligi hamda mazkur ko'nikmalarning farzandlarning ijtimoiylashuvidagi ahamiyati aniqlangan. Shu bilan birgalikda noto'liq oilalar farzandlarini pedagogik qo'llab-quvvatlashning quyidagi ustuvor yo'nalishlari aniqlangan (2-rasm):



**2-rasm. Noto‘liq oilalar farzandlarini pedagogik
qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari**

Noto‘liq oilalarning ko‘pligiga va ularning o‘ziga xos qiyinchiliklariga qaramasdan, zamonaviy pedagogikada farzandlarni yolg‘izlikdan ijtimoiylashtirish uchun pedagogik yordam vositalari mavjud emas. Bu bir tomondan, to‘liq va noto‘liq oilalarning ijtimoiy tengligi, ikkinchi tomondan, to‘liq va noto‘liq oilalarga nisbatan kamsitish qo‘rquvi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqotning vazifasi noto‘liq oilalardagi farzandlarni ijtimoiylashtirish bo‘yicha pedagogik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalar va vositalarni ishlab chiqish va aniqlashtirish, shuningdek, to‘liq ota-onadan farzandlarni ijtimoiylashtirish uchun pedagogik yordamni modellashtirish edi. Mazkur vazifalar asosida “Noto‘liq oilalardan farzandlarini ijtimoiylashtirish uchun pedagogik qo‘llab-quvvatlash” modeli ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm. “Noto‘liq oilalardan farzandlarini ijtimoiylashtirish uchun pedagogik qo‘llab-quvvatlash” modeli

Taklif etilayotgan modelning maqsadi noto'liq oilalardagi farzandlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini targ'ib qilishdan iborat. Modelning natijali va baholash komponenti diagnostika vositasi – ijtimoiylashuv mezonlari ko'rsatkichlarini taqdim etadi, bu esa noto'liq oilalardan farzandlarning ijtimoiylashuvini aniqlash va baholashga imkon beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ijtimoiylashuv muhitini va noto'liq oilalardan yosh farzandlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun imkon beradigan dastur ishlab chiqildi. Ushbu bobning uchinchi paragrafida mazkur dastur bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar mazmuni bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, unga ko'ra:

1. Ota-onalarning ota-onalar masalalari bo'yicha maslahat berish ehtiyojlarini tahlil qilish;

2. Ajrashgan ota-onalarning oilaviy tarbiyasidagi buzilishlar va og'ish sabablarini aniqlash;

3. To'liq va noto'liq oilalarning pedagogik madaniyatining xususiyatlarini o'rganish, farqlarni aniqlash va noto'liq oilalarning defitsit belgilarini ta'kidlash;

4. O'qituvchilarning noto'liq oilalar va ularning ota-onalaridan yosh farzandlarni ijtimoiylashtirish uchun shaxsiy pedagogik yordam ko'rsatishga tayyorligini o'rganish;

5. Noto'liq oilalardan yosh farzandlarni ijtimoiylashtirish mezonlarini aniqlashtirish.

Namuna hajmi, tadqiqot yo'nalishlari va usullari haqida ma'lumot quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Namuna hajmi, tadqiqot yo'nalishlari va usullari

Tadqiqot yo'nalishlari	Tekshirilgan murojaatlar soni	Foydalanilgan usullar
Ota-onalarning so'rovlari mazmunini tahlil qilish	ota-onalarning 728 ta murojaatlari	Ro'yxatga olish jurnallarining statistik tahlili
Oilaviy tarbiyadagi buzilishlar va og'ish sabablarini aniqlash	64 nafar yolg'iz ota-onalar (onalar va otalar teng) va to'liq oilalardan 17 nafar onalar	Oilaviy tarbiyani tahlil qilish so'rovnomasi
Farzandlar oilalarining pedagogik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish	ota-onalarning 109 ta murojaati	1-so'rovnoma: "Ota-onaning pedagogik muvaffaqiyatini o'z-o'zini baholash"
O'qituvchilarning kasbiy madaniyatini o'rganish	O'qituvchilarning 15 ta murojaati	2-so'rovnoma: "Maktab va o'quvchilar oilalaridagi pedagogik vaziyatni baholash"

Dissertatsiyaning “**Noto‘liq oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash tajriba-sinov ishlari natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlari tashkil etish va natijalari hamda tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlillari keltirilgan.

To‘liq va noto‘liq oilalardan bo‘lgan farzandlar o‘rtasida ijtimoiylashuvdagi farqlarni aniqlash uchun tajriba-sinov boshida ijtimoiylashuvning birlamchi bahosi o‘tkazildi. Buning uchun tanlangan to‘rtta sinf o‘quvchilari 2 guruhga bo‘lingan – to‘liq oilalardan va noto‘liq oilalardan. Ijtimoiylashuvni baholash o‘qituvchi va mustaqil ekspert tomonidan amalga oshirildi. Tajriba ikki guruhda o‘tkazildi. Tajriba guruhiga 1, 2 va 3-sinf o‘quvchilari, nazorat guruhiga esa 2-sinf o‘quvchilari kirdi.

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida to‘liq va noto‘liq oilalardagi farzandlar guruhlaridagi korrelyatsiyalarni tahlil qilish to‘liq va noto‘liq oilalardagi farzandlar o‘rtasidagi farqlar aniqlandi. To‘liq va noto‘liq oilalardagi yosh farzandlar o‘rtasidagi ijtimoiylashuv mezonlarining qiyosiy tahlili pleyadada sezilarli darajada namoyon bo‘lib (2-jadval), mezon ko‘rsatkichlari to‘liq va noto‘liq oilalarning o‘quvchilari uchun keng tarqalgan va ular o‘rtasida to‘qqizda farqlar mavjud degan xulosaga kelishimizga imkon berdi.

2-jadval

**Tajriba-sinov oldidan ijtimoiylashuv mezonlari
ko‘rsatkichlari**

Tipologik guruhlar	Mezon ko‘rsatkichlari	
	To‘liq oilalarning bolalari	Noto‘liq oilalarning bolalari
Kognitiv	xotira, e‘tibor, fikrlash	xotira, e‘tibor
Ijtimoiy-pedagogik	ta‘lim motivatsiyasi, o‘qituvchi bilan muloqot	ta‘lim motivatsiyasi, o‘qituvchi bilan muloqot
Kommunikativ	tengdoshlar bilan muloqot qilish, tengdoshlar bilan ziddiyat, do‘st bo‘lish qobiliyati	tengdoshlar bilan ziddiyat, do‘st bo‘lish qobiliyati, xulq-atvor
Oilaviy munosabatlar	oila g‘oyasi, shaxslararo munosabatlar, oilada o‘zini o‘zi anglash, oila a‘zolari bilan identifikatsiya qilish	oilani taqdim etish
“Men” obrazi	hissiy holat, o‘zini namoyon qilish	o‘z o‘zini baholash, tender tenglik

Ushbu mezon ko‘rsatkichlari noto‘liq oilalardagi farzandlarning ijtimoiylashuvi uchun muhimdir va ularga ijtimoiylashuv uchun shaxsiy pedagogik yordam ko‘rsatish zarurligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, noto‘liq va to‘liq oilalardan farzandlar o‘rtasidagi farqlar matematik tarzda tasdiqlangan, bu ushbu ishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Olingan ma'lumotlarga asosan, biz o'qituvchilarga noto'liq oilalarning o'quvchilariga ta'lim hayotida farzandlar buni sezmasliklari uchun pedagogik yordam ko'rsatishga imkon beradigan tavsiyalar ishlab chiqdik. Ushbu tavsiyalar quyidagilardan iborat: o'quvchilarning motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning o'qituvchiga savollar/so'rovlar bilan murojaatlarini rag'batlantirish, tengdoshlar bilan muloqotda ishtirok etishni osonlashtirish, chuqurlashgan hissiy tanglikni aniqlash, ularni ma'qullash bilan rag'batlantirish, xatti-harakatlarning o'zgarishiga e'tibor berish, vaqtinchalik maxsus sharoitlar yaratish yoki og'zaki bo'lmagan qo'llab-quvvatlash usullaridan foydalanish, oilada bolaga qo'yiladigan talablarni tuzatish va ularni ota-onalar bilan maslahat ishlarida tuzatish.

Ijtimoiylashuv mezonlari ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilishni osonlashtirish uchun tajribadan so'ng noto'liq oilalardagi yosh farzandlarda pleyadda sezilarli darajada namoyon bo'lgan mezon ko'rsatkichlari aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

**Tajribadan keyin ijtimoiylashuv mezonlari
ko'rsatkichlari**

Tipologik guruhlar	Mezon ko'rsatkichlari	
	To'liq oilalarning bolalari	Noto'liq oilalarning bolalari
Kognitiv	xotira, e'tibor, fikrlash	xotira, e'tibor, fikrlash
Ijtimoiy-pedagogik	ta'lim motivatsiyasi	ta'lim motivatsiyasi
Kommunikativ	do'st bo'lish qobiliyati, xulq-atvor	do'st bo'lish qobiliyati, xulq-atvor
Oilaviy munosabatlar	ota-onalarning ta'siri, oila haqida tanishtiruv, shaxslararo munosabatlar, oilada o'zini o'zi idrok etish	ota-onalarning ta'siri, oila haqida tanishtiruv
"Men" obrazi	hissiy holat, o'z-o'zini hurmat qilish, o'zini namoyon qilish, tenderidentifikatori	o'zini namoyon qilish, tenderidentifikatori

Tajribadan so'ng TG va NG tipologik guruhlar tomonidan ijtimoiylashuv mezonlari ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili, shuningdek, ularning to'liq oilalardagi yosh farzandlarning natijalari bilan o'zaro bog'liqligi quyidagi jadvalda keltirilgan (4-jadval).

Ijtimoiylashtirish mezonlarining o'zgarishi

Mezon ko'rsatkichlarining tipologik guruhlari	Tajribadan oldin to'liq oilalardan farzandlar	Tajribadan oldin noto'liq oilalardan farzandlar	Tajribadan so'ng TG dan noto'liq oilalarning farzandlar	Tajribadan so'ng TG dan to'liq oilalarning farzandlar
Kognitiv	+	+	+	-
Ijtimoiy-pedagogik	+	-	-	-
Kommunikativ	-	+	+	-
Oilaviy munosabatlar	+	-	+	-
"Men" obrazi	+	-	+	-

“+” – mezon ko'rsatkichlari o'rtasida 2 yoki undan ortiq havolalarning mavjudligi

“-” – mezon ko'rsatkichlari orasidagi 2 dan kam havola yoki yo'q

Olingan natijalarni taqqoslash bizga quyidagilarni tasdiqlashga imkon beradi:

– noto'liq oilalarning farzandlar tengdoshlaridan to'liq oilalardan mezon ko'rsatkichlarining tipologik guruhlari bilan farq qiladi.

– NGda tajriba-sinovdan so'ng ijtimoiylashtirish mezonlari ko'rsatkichlari sonining kamayishi davom etayotgan noqulay vaziyatni va noto'liq oilalardagi farzandlarni ijtimoiylashtirishda qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi, bu ularga shaxsiy pedagogik yordam ko'rsatish zarurligini isbotlaydi.

- noto'liq oilalar farzandlarini ijtimoiylashtirish uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash modelidan foydalanish noto'liq oilaning tanqisligini tipologik guruhlari: oilaviy munosabatlar, o'zini o'zi tasvirlash bilan qoplashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari respondentlarning aksariyati farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda turli qiyinchiliklarga duch kelayotganliklarini bildirishgan. Katta qismi ayrim hollarda qiyinchiliklarni uchratishsa, ba'zilar esa doimiy ravishda turli muammolar bilan to'qnash kelmoqda. Bu ko'rsatkichlar ota-onalarning farzand tarbiyasi jarayonidagi muammolar va qiyinchiliklarning mavjudligini ochib beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, farzand tarbiyasida turli qiyinchiliklar va muammolar mavjud bo'lib, ular ota-onalarning ijtimoiy, iqtisodiy va shaxsiy sharoitlariga bog'liq ravishda namoyon bo'lmoqda. Ota-onalarning farzand tarbiyasiga bo'lgan qarashlari va duch kelayotgan qiyinchiliklari ularning jinsi, yashash joyi va oilaviy holatiga ko'ra turlicha ifodalanadi. Iqtisodiy yetishmovchilik, vaqt taqchilligi, sog'liq bilan bog'liq muammolar, yolg'izlik hissi kabi masalalar tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning farzand tarbiyasidagi asosiy muammolari sifatida qayd etilgan.

Respondentlarning farzandlarini tarbiyalashda qanday muammolarga duch kelayotganliklari to'g'risidagi fikrlari tahlil qilinganda ularning qariyb yarmida (47,2%) farzandlarini tarbiyalashda iqtisodiy yetishmovchilik muammosi kuzatilayotganligi aniqlandi (5-jadval).

Respondentlarning farzandlarini tarbiyalashda qanday muammolarga duch kelayotganliklari to'g'risidagi fikrlari (foizda)

Muammolar	Jami	Jinsi		Yashash joyi	
		Erkak	Ayol	Shahar	Qishloq
Iqtisodiy yetishmovchilik	47,2	25,0	51,0	40,0	51,8
Hayot tashvishlari bilan bo'lib ularga ko'proq vaqt ajrata olmayotganim	24,4	33,3	23,1	30,0	22,4
Tarbiyalashda erkak (ayol) kishining o'rnini yetishmasligi	22,8	25,0	22,1	10,0	25,9
Sog'liq bilan bog'liq muammolar	16,3	-	19,2	23,3	15,3
O'qitish bilan bog'liq imkoniyatlarimning yo'qligi	13,8	8,3	14,4	10,0	15,3
Yolg'izlik	22,0	33,3	22,1	3,3	28,2
Ular uchun alohida xonalarning yo'qligi	8,1	25,0	6,7	10,0	5,9
O'zimning yetarli bilim va malakalarga ega emasligim	5,7	8,3	5,8	6,7	5,9

So'rov davomida savolnomadagi mazkur savolga uchtagacha javob berish imkoni berilganligi uchun javob variantlariga mos kelgan foiz miqdorining umumiy yig'indisi 100 foizdan 300 foizgacha bo'lishi mumkin.

Olingan natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent-Fisher mezoni asosida erkinlik darajasi va ishonchli chetlanishlari topildi. Bular quyidagi jadvalda aks etgan:

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	D_m	D_n	τ_m	τ_n	δ_m	δ_n	Δm	Δn
3,78	3,92	Tajriba boshida samaradorlikka erishilmagan							
4,14	3,71	0,35	0,578	0,59	0,76	0,14	0,20	0,04	0,077

Olingan natijalardan ma'lumki, tajriba guruhidagi olinagan natijalar nazorat sinfidagiga nisbatan 12,8% ga oshganligini anglatadi. Demak noto'liq oilalarda voyaga etmagan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishni amalga oshirishda tajriba va nazorat guruhlarida qatnashgan respondentlarning samaradorlik bo'yicha o'tkazilgan tajriba – sinov ishlari muvafaqiyatli bo'ldi.

XULOSALAR VA TAVSIYALAR

1. Ijtimoiylashuv jarayoni dissertatsiya tadqiqotida shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy moslashuvi va izolyatsiyasining kombinatsiyasi sifatida ko'rib chiqiladi. Muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv jamiyatga moslashish va shaxsning ijtimoiy avtonomiyasi o'rtasidagi ma'lum bir muvozanatni nazarda tutadi.

2. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, noto'liq oila bolalarni ijtimoiylashtirish funksiyasini amalga oshirish nuqtayi nazaridan to'liq oilaga qaraganda qiyinroq ahvolda bo'ladi. Mutaxassislar bitta ota-onasi bo'lgan oilaning ijtimoiylashuv qobiliyatini zaiflashtiradigan bir qator omillarni nomlashadi: past moddiy xavfsizlik; bolaning jinsi - rolini aniqlash uchun namuna sifatida ota-onalardan birining yo'qligi; bolaning xulq-atvori va faoliyati ustidan nazoratning yetishmasligi; ta'limning bir tomonlama ta'siri, maktab bilan zaif aloqa; bolani yolg'iz tarbiyalayotgan ota-onaning hayotiy buzilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Noto'liq oilada bolalarni ijtimoiylashtirish xarajatlari, ayniqsa, o'smirlik davrida aniq namoyon bo'ladi, buni bir qator mualliflarning tadqiqot ma'lumotlari tasdiqlaydi. Noto'liq oilalardagi farzandlar jismoniy va hissiy rivojlanish, jinsiy identifikatsiya qilish, shuningdek, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish va qiymat yo'nalishlarini shakllantirishning boshqacha tabiatini namoyish etadilar. Ushbu holat tufayli noto'liq oilalarda farzandlarni ijtimoiylashtirish jarayonini pedagogik amaliyot uchun o'ziga xos muammolarni o'z ichiga olgan holda jiddiy o'rganish zarurati mavjud.

4. Noto'liq oilalardan farzandlarni ijtimoiylashtirish samaradorligini oshirishga maqsadli pedagogik yordam ko'rsatish orqali ta'lim muassasalarida erishish mumkin. Pedagogik qo'llab-quvvatlash o'smirlarga ijtimoiylashuv muammolarini hal qilishda yordam berishga qaratilgan kasbiy pedagogik faoliyat hisoblanadi.

5. Bitta ota-onasi bo'lgan oilalar hayotidagi muammolar ishlab chiqilganiga qaramay, noto'liq oilalarda farzandlarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish va ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga keladigan muammolarning o'ziga xos xususiyatlari to'liqroq yoritishni talab qiladi.

6. Noto'liq oilaning pedagogik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi, bu bizga uning yetishmasligini tavsiflashga imkon beradi. Ijtimoiylashuvning o'n sakkizta mezon ko'rsatkichlari tanlab olindi va asoslandi, ular uni kognitiv, ijtimoiy-psixologik, kommunikativ, oilaviy munosabatlar va "Men" obrazi sohalarini tavsiflaydi.

7. Har bir mezon ko'rsatkichi uchun darajalar ishlab chiqilgan: ortgan, yetarli, kamaygan, past va noto'g'ri. Noto'liq oilalardagi farzandlar to'liq oilalardagi tengdoshlariga nisbatan kamroq moslashuvchanlik, faollik, xushmuomalalik, ijtimoiy muhitga qo'shilish va psixologik yaxlitlik bilan ajralib turishi matematik tahlil bilan isbotlangan. Xalq pedagogikasi, madaniyati va oilaviy qadriyatlari tajribasiga asoslanib, noto'liq oilalardan farzandlarni ijtimoiylashtirish uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash modeli ishlab chiqilgan va asoslangan.

8. Quyidagi pedagogik yordam vositalari taklif etildi va sinovdan o'tkazildi:

– "yordam - o'zaro ta'sir – ko'mak" taktikasi;

– o‘qituvchilarga noto‘liq oilalardan bo‘lgan farzandlarni ta’lim hayotida ijtimoiylashtirish uchun pedagogik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

– ijtimoiylashtirishning mezon ko‘rsatkichlari guruhi aniqlandi, ularning mavjudligi noto‘liq oilalarning farzandlarida ularga shaxsiy pedagogik yordam ko‘rsatish uchun asosdir.

9. Ta’lim muassasasida noto‘liq oilalarning farzandlariga pedagogik yordam ko‘rsatish shartlari o‘qituvchining yuqori malakasi, pedagogik qo‘llab-quvvatlash vositalariga ega bo‘lish, qo‘llab-quvvatlovchi pozitsiya va sezgirlik, mutanosiblik hissi, oilaviy qadriyatlarga murojaat qilishda pedagogik xushmuomalalik va axloq qoidalariga rioya qilish maqsadga muvofiq.

10. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, biz taklif qilgan pedagogik qo‘llab-quvvatlash modeli noto‘liq oilalardan farzandlarning ijtimoiylashuviga hissa qo‘shadi. Modelni qo‘llash natijasida ular oilaga ma’naviy va qadriyat manbayi sifatida munosabatni va o‘zlarining kelajakdagi to‘liq oilasini rejalashtirishga ichki munosabatni, shuningdek, maqsadlarni belgilash, qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish lozim.

11. Farzandlarning ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlar ota-onalar yig‘ilishlari (sinf va maktab miqyosida) va turli xil maslahatlar tarkibiga ta’lim xabarlarini kiritish shaklida eng samarali ekanligi aniqlandi.

12. Tadqiqot natijalari va ularni tahlil qilish bizga gipoteza va mudofaa uchun ilgari surilgan takliflarni isbotlangan deb hisoblash imkonini beradi. Keyingi tadqiqotlar istiqbollari katta yoshdagi, yetim bolalarning noto‘liq oilalaridan maktab o‘quvchilarining ijtimoiylashuvini o‘rganish va ularning ijtimoiylashuviga yordam beradigan shaxsiy pedagogik yordamni rivojlantirish bilan bog‘liq.

ILMIY-METODIK TAVSIYALAR:

1. Noto‘liq oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishda xizmat qiladigan ta’lim resurslari ishlanmasi va o‘quv-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasini ishlab chiqish, shuningdek mahallalarda faoliyat olib borayotgan “Ota-onalar universiteti” faoliyatini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zarur.

2. Noto‘liq oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishda Mahalla – ta’lim muassasasi –oila hamkorlik tizimini “o‘zaro ta’sir-ko‘mak” platformasini tashkil etish va ommalashtirish.

3. Noto‘liq oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishda “Mening katta oilam”, “Oila – kichkina vatan”, “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” kabi ko‘rik tanlovlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI
СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ
LIST OF PUBLISHED WORKS

I bo'lim (I часть, I парт)

1. Muratova N.X Noto'liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlash xususiyatlari // Mug'allim: ilmiy metodologik jurnal 2023yil 6-son 258-264bet. (13.00.00№20)
2. Muratova N.X Noto'liq oilalar ijtimoiylashuv muammolari // Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali №6-son (Noyabr – dekabr). 2023 110-114 bet.(13.00.00 №17)
3. Muratova N.X Noto'liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlash uchun pedagogik qo'llab quvvatlashni modellashtirish // Belarus-O'zbek ilmiy metodik jurnal 2023 5 –son 72-77 bb. 6 bet
4. Muratova N.X Noto'liq oilalarda voyaga etayotgan farzandlarning ijtimoiy hayotga moslashuv mexanizmlarini o'rganish // Kasb–hunar ta'limi ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. 2023 yil 6-son, 250-77 bb 5 bet
5. Muratova N.X Noto'liq oilalardagi bolalarni pedagogik qo'llab quvvatlash metodologiyasining samaradorligi // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar Xalqaro ilmiy pedagogik jurnal 2024 1-son, 182-186 bb 5 bet <https://doi.org/10.53885/edinres.2024.01.1.039>
6. Muratova N.X Noto'liq oilada voyaga etayotgan farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash ijtimoiy pedagogik omillari // Science and innovation Xalqaro ilmiy jurnal 2023 yil 18 iyun
7. Muratova N.X Noto'liq oilada voyaga etayotgan farzandlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish va ularga ko'maklashish // Белорусско-Узбекский научно-методический журнал Belarusian-Uzbek scientific and methodological journal 23-27bet BELARUS-O'ZBEK 7 ilmiy-metodik jurnal 2024 № 4.www.journal.gri-science.uz
8. Муратова Н.Х Ўзбекистон Республикасида оилага қаратилган эътибор // Development and innovation scientific,<http://doi.org/10.5281/zd.nodo.79452>,2022. 1-8 bet.
9. Муратова Н.Х Ўзбекистонда истиқомат қиладиган Оналар ва болалар муҳофазаси // The international multidisciplinary conference hosted by Manchester England, <https://conference.org> 25th Sep 2022. 88-90bet 3bet.
10. Муратова Н.Х Ўзбекистон Республикасида она ва бола муҳофазаси // The International Congress on multidisciplinary studies in education and applied sciences Ipoh Malaysia Sep.30th 2022 <https://conference.org> 108-32 bet 2bet.
11. Muratova N.X Psychological problems and social attitudes of young people growing up in incomplete families // Science and innovation International scientific journal volume 2 issue 6 June 2023, pp 176-178 pp <https://doi.org/10.5281/zenodo.8049725>
12. Muratova N.X Noto'liq oilada voyaga etayotgan farzandlarni ijtimoiy hayotga moslashtirishning nazariy asoslari // Science and innovation Xalqaro ilmiy jurnal 2023 yil 16 iyun 526-528 bb <https://doi.org/10.5281/zenodo.8051875>